

**"TEMURBEKLAR MAKTABI" HARBIY AKADEMİK LITSEYLARIDA
O'QUVCHI YOSHLARLARNING VATANPARVARLIK TUYG'USINI
SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION METODLAR**

*DXX ChQ "Yosh chegarachilar" HAL Tillar kafedrasi ingliz tili fan o'qituvchisi
Sattorov Sherzod*

*DXX ChQ "Yosh chegarachilar" HAL Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishi 2 bosqich
o'quvchisi
Yo'ldoshev Asrorbek*

Annotatsiya: Hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri albatta yoshlar va ularning vatanga bo'lgan muhabbatini shakllantirishdir. Ushbu maqolada nazariy va amaliy manbalardan shuningdek, O'zbekiston Respublikasi ta'lif tizimida so'nggi tashabbuslar va islohotlardan foydalaniladi. O'quvchi yoshlar orasida milliy o'zlikni va vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash uchun qanday usullardan foydalanish mumkinligi baholanadi.

Kalit so'zlar: "Temurbeklar maktabi", harbiy akademik litsey, vatanparvarlik, interfaol, madaniy, tarixiy, ekologik loyihamalar va h. k.

"Bugungi kunda har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo'lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur".

Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

KIRISH

XXI asrda, murakkab geosiyosiy, maskuraviy, g'oyaviy va axborot kurashlari kuchayib borayotgan bir paytda, yoshlarni mintaqa va dunyodagi harbiy-siyosiy vaziyatni tahlil qilish, to'g'ri baho berish, mamlakat mustaqilligi va tinch-osoyishta hayotiga xavf solishi mumkin bo'lgan tahdidlarga qarshi izchil kurash olib borish, jamiyatning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki tahdidlarga – mamlakat taqdiriga loqaydlik, korrupsiyaga qarshi kurash, oilaviy qadriyatlarga sodiqlikni qadrlash hamda ularni yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega komil inson sifatida tarbiyalash tobora dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

ASOSIY QISM

"Temurbeklar maktablari" harbiy-akademik litseylari oldidagi asosiy vazifa o'quvchilarda xalqimizning ma'naviy, axloqiy qadriyatlariga, madaniyati va urf-odatlariga chuqrur hurmatni shakllantirish, halollik, vijdoniyilik, vatanparvarlik, sadoqat, fidokorlik kabi shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish, shuningdek, milliy g'urur tuyg'ularini o'stirishdir. O'quvchilarda, xalqimizning boy tarixi va madaniy merosini, ayniqsa, buyuk ajdodlarimizning bebaho merosini bilish, Vatan ozodligi va farovonligi yo'lida o'zini qurban qilgan Jadid bobolarimizning qahramonligini anglash orqali, O'zbekiston xalqiga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlarga va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan kadrlarni tarbiyalashdan iborat. "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylarida yosh avlodni nafaqat harbiy bilim va ko'nikmalar bilan to'yintirish, balki chuqrur vatanparvarlik tuyg'usi bilan ham tarbiyalash albatta muhimdir.

Zamonaviy dunyoda global muammiolar va texnologik yutuqlar tufayli an'anaviy tarbiya usullariga urg'u ancha kamayib ketmoqda. Shu sababli, yangicha innovatsion metodlarni an'anaviy tarbiya usullari bilan birlashtirishga qo'llash orqali bu kabi o'quv yurtlarida vatanparvarlik tuyg'usini samarali shakllantirish mumkin.

Albatta, "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi o'quvchilarini ta'lim va tarbiya jarayoni mezonlari Qurolli Kuchlar zaxirasini tayyorlashga ixtisoslashtirilgan harbiy-akademik litseylar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-sonli "O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida belgilab berilgandir. Belgilab berilgan mezonlarni amalga oshirishda qo'shimcha pedagogik va metodologik yondashuvlarni ko'rib chiqsak.

"Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyalarida dars jarayonlarida yoki darsdan tashqari hollarda zamонавиу texnologiyalar, xususan animations yoki video darslar yordamida o'quvchilarga milliy urf odatlar, ota-bobolarimiz amal qilgan an'analar va shu kabi qadriyatlarga oid ma'lumotlar berish albatta o'quvchi yoshlarda vatanga el-u xalqga bo'lgan muhabbatini oshirishda yordam berishi mumkin. Masalan, tarixiy voqealarni virtual muhitda namoyish etish orqali o'quvchilar o'z tarixini chuqurroq tushunishlari va vatanparvarlik ruhini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu metod o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qilishda yordam berishi mumkin.

Undan tashqari interfaol dasturlar va simulyatsiyalar ("role play metodi") orqali o'quvchilar harbiy va fuqarolik vazifalarini bajarishni o'rghanishlari mumkin. Masalan, harbiy strategiyalar yoki xavfsizlikni muhofaza qilish bo'yicha simulyatsiyalar tashkil etish o'quvchilarga jamoaviy ishlash va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni o'rgatadi. Bu metodlar o'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlaydi.

Harbiy akademik litseyalarida o'quvchi yoshlarni vatanga muhabbatini tarbiyalashda albatta "madaniy va tarixiy" tadbirlarni tashkil etish ijobjiy yechimlardan biridir. Bu tadbirlar orqali o'quvchilarga milliy, madaniy meros va an'analarni tushunish imkoniyati yaratiladi. Masalan, tarixiy va arxeologik yodgorliklarga ekskursiyalar, milliy qahramonlar haqida hikoyalar va madaniy bayramlarni nishonlash o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otadi. Bu metodlar o'quvchilarni milliy g'urur bilan tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Albatta, Jamoaviy loyihalar va ijtimoiy faoliyatlar ham o'quvchilarga jamiyat hamda vatani uchun foydali ishlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Masalan, ekologik loyihalar ya'ni, o'quvchilar o'quv yurtlari yoki o'zlarining yashab turgan xonardonlariga yaqin hududlarda ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish va bunda hamkorlikda ishlash orqali o'quvchilar jamoaviy birdamlik bilan bir qatorda o'z vatani uchun foydali ishlarni amalga oshirishni o'rghanadilar. Bu kabi loyihalarham o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat va vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishda ko'maklashadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga qo'shimcha sifatida ta'kidlash mumkinki, Psixologik va ma'nnaviy tarbiya ham o'quvchilarning shaxsiy va ma'nnaviy qadriyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, o'quvchilarga ma'nnaviyat, odob-axloq va milliy g'urur haqida darslar o'tish orqali ularning vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash mumkin.

O‘quvchilarda “komil inson” sifatlarini tarbiyalash zarurdir va “komil inson” hislatlaridan biri bu uning vataniga bo‘lgan muhabbati cheksiz ekanligidir.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseylarida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantrishda yangicha innovatsion metodlarni qo‘llash zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonini yanada samarali tashkil etishda muhimdir. Texnologiyalarni qo‘llash, interfaol dasturlar, madaniy tadbirlar, jamoaviy loyihibarlar va psixologik tarbiya usullari o‘quvchilarni nafaqat bilimli, balki vatanparvar va ma’naviy jihatdan g‘oyaviy jangchi sifatida tarbiyalashga yordam beradi. Ushbu metodlarni amaliyotda qo‘llash orqali harbiy litseylar yosh avlodni kelajakda vatan uchun fidoyi xizmat qilishga tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 iyundagi “O‘smlirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash xamda O‘zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-4375-sonli Manba.: Lex.uz

2.Botirov Uchkun Vafokulovich, & Vafogulova Feruzabunu Uchkun’s Qizi. (2023). New Pedagogical Methods of Educating Young People in the Spirit of Patriotism. Zeta Repository, 19, 142–145. Retrieved from <https://zetarepo.com/index.php/zr/article/view/179>

3.Shakirova Nafisa Abrorovna. (2025). “TEMURBEKLAR MAK TABI” HARBIY-AKADEMIK LITSEYI O‘QUVCHILARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA “TARBIYA” FANINING O‘RNI. World Scientific Research Journal, 35(1), 172-178. <https://scientific-jl.org/wsrj/article/view/10699>

4.Harbour, E., & Connick, J. (2005). Role playing games and activities rules and tips. <https://www.businessballs.com/roleplayinggames.htm>